

THE SOLUTION TO ALL PROBLEMS IN SOCIETY IS IN HISTORY

Qosimova Qunduz Zayniddinovna

Jizzax viloyati Arnasoy tumani Kasb-hunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi

Abstract: *After gaining independence, our people have become increasingly interested in knowing their language, culture, and values, and in understanding their identity. There are people who want to know who their ancestors are, their lineage, the village where they were born and grew up, in short, the history of their homeland. This article discusses our history, perhaps the ideas that each person needs for the entire society.*

Keywords: *Society, history, revolution, change of eras, historical lesson, humanity, cultural heritage.*

Annotatsiya: *Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z tili, madaniyati, qadriyatlar tarixini bilishga o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Odamzod borki avlod-ajdodi kim ekanligini, nasl-nasabini o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, xullas Vatanining tarixini bilishni istaydi. Ushbu maqolada tariximiz balki, har bir inson butun bir jamiyat uchun kerakli bo'lgan fikrlar haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, tarix, inqilob, davr almashinuvi, tarixiy saboq, insoniyat, madaniy meros.*

KIRISH: Tarix nima? Tarix – insoniyatning o'tmishi haqidagi ilm-fan hisoblanadi. U jamiyatlar, shaxslar va madaniyatlarning o'tgan davrlardagi voqealari, hodisalari, g'oyalari va tajribalari haqida ma'lumotlarni o'rganadi, tizimlashtiradi hamda tahlil qiladi. Tarix faqat faktlarni yig'ish emas, balki, ularni anglash, ularning sabablarini va oqibatlarini tushunishga qaratilgan fan sifatida rivojlanadi.

Tarixning asosiy maqsadi quyidagich:

1. O'tmishni o'rganish ya'ni qanday hodisalar bo'lganini aniqlash va ularni hujjatlashtirish.
2. Xatolar va muvaffaqiyatlardan saboq olish, tarix klajakdagi qarorlarni qabul qilishda ko'rsatma beradi.
3. Jamiyatni tushunish, bunda o'tmishdagi jarayonlar hozirgi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy holatga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganadi.

4. Madaniy merosni saqlash ya'ni har bir xalqning o'ziga xos tarixi va madaniyati bo'lib, bu kelajak avlodlar uchun katta ahamiyatga egadir.

Tarix jamiyatni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U orqali biz o'zlikni anglaymiz, kelajakni shakillantirami, murakkab jarayonlarni tushunamiz. Insoniyat tarixida uchragan ko'plab muammolar takrorlanib keladi va ularga yechim izlashda tarixiy tajribalar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Tarixni o'rganish orqali biz quyidagilarni amalga oshirilishi mumkin:

1. Xatolarni tahlil qilish va ularni takrorlamaslik, masalan, tarixdagi iqtisodiy inqirozlar, urushlar yoki ekologik falokatlardan saboq chiqarib, hozirgi zamonda shunga o'xshash hodisalardan yiroqlashish.

2. Amaliyotlarni qabul qilish, tarixda samarali ishlangan boshqaruv usullari, ijtimoiy islohotlar yoki texnologik yutuqlarni hozirgi zamonga moslashtirish mumkin.

Tarix – bu insoniyatning xatolar va yutuqlar kitobi. Masalan XX-asrning 1-yarmida sodir bo'lgan ikkinchi jahon urushi, insoniyatga urushning qanchalik vayronkorlik va shavqatsizligini ko'rsatdi. Ushbu voqealar Xalqaro Diplomatyaning yangi yo'nalishlarini shakillantirishga olib keldi. Bugungi kunda tinchlikni ta'minlash uchun BMT kabi xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini yuritmoqda. Tarixda muammolarga topilgan muvaffaqiyatli yechimlar bugungi kundagi shunga o'xshash muammolar uchun yo'l-yo'riq bo'lishi mumkin. Misol uchun qadimgi Rim imperiyasida qurilgan suv ta'minoti tizmlari bugungi kunning suv muammolarini hal qilish mumkin. Bundan tashqari tarixiy tajribani zamonamizga moslanishini oladigan bo'lsak, sanoat inqilobi davrida ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashish uchun qilingan islohotlar bugungi texnologik inqilob davridagi iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik muammolarni hal qilishda foydali bo'lishi mumkin.

Jamiyatimizdagi barcha muammolarning yechimi tarixda mavjud degan fikrning o'zida chuqur haqiqatni aks ettiradi. Ammo har qanday tajribani ko'r-ko'rona qo'llash degani emas. O'tmishni o'rganib, undan saboq olib, zamonaviy muammolarga innovatsion yonashish yo'llari bilan yechim topish eng samarali yo'ldir. Tarixni bilish insoniyatni yanada barqaror va adolatli kelajakka olib boradi. Jamiyat va tarix umuman olganda o'zaro uzviy tushunchalardir ya'ni bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Tarix jamiyatning o'tgan hayotni va faoliyatini o'zida aks ettirsa, jamiyat es tarixning asosiy yaratuvchisi hamda davomchisidir.

Jamiyat insonlarning uyushmasi bo'lib, o'z faoliyati davomida tarixni shakillantiradi. Jamiyatdagi shaxslar va guruhlar siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga sabab bo'ladi. Masalan, inqiloblar, urushlar yoki iqtisodiy o'zgarishlarni misol qilsak bo'ladi. Umuman olganda jamiyatning rivojlanish tarixining davom etishiga sabab bo'ladi. Va bu bog'liqlikni tushunish, jamiyatning o'z o'tmishini chuqurroq anglashiga va kelajakka to'g'ri yo'l tanlash imkonini beradi.

TAKLIFLAR

Ushbu mavzuning amaliy ahamiyatini oshirish va uni real hayotga tatbiq etish uchun quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Tarixni kengroq o'qitish; Maktab va oliy o'quv yurtlarda tarixiy voqealarni tahliliy o'qitish orqali o'quvchilar muammolarni hal qilish ko'nikmalariga o'rgatish

2. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash; O'tmishda topilgan yechimlarni yangi texnologiyalar hamda metodlar yordamida modernizatsiya qilish.

3. Ijtimoiy tengsizlik; bunda tarixdagi ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganib, jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga yechim topish.

4. Tarixiy forumlar hamda seminarlar tashkil etish; Tarixiy mavzuda muhokamalar va ilmiy konfrentiyalar o'tkazish.

XULOSA:

Xulosa qilib aytadigan bo'sak, jamiyatdagi barcha muammolarning yechimini tarixda mavjudligi haqidagi g'oya insoniyatning o'tmish tajribalaridasn foydalanish qanchalik muhim ekanligini anglatadi. Tarix insoniyatning muvaffaqiyatlarini va xatolarini o'zida aks ettiruvchi boy manbadir. O'tgan voqealar sabab va oqibatlarini o'rganish orqali bugungi kunning murakkab muammolarini hal qilishga yordam beruvchi yo'l-yo'riqlarni topishi mumkin. Shunday qilib, tarixga yuzlanish jamiyatning barqqaor rivojlanishi va adolatli kelajakni qurishi uchun muhim omildir. Negaki, tarixiy xiotirasiz kelajalk yo'qdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://org/tarixiy-xotirasiz-kelajak-yoq>

2. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga>
3. <https://uz/news/yoshlarga-etibor-kelajakka-etibor>
4. <https://history.uz>
5. <https://osu.uz>
6. <https://uzhis.uz>